INTELLEKTUAL YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VOSITASIDA TARBIYALASH - MEDIA MADANIYAT: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ismailova Zuhra Qoraboyevna
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti-milliy tadqiqot universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish, ularni turli axborot xurujlaridan himoya qilish hamda media madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasida oila va ta’lim muassasalarining o‘rni, milliy qadriyatlar va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati hamda media ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tarbiyasi, intellektual salohiyat, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, axborot xuruji, media madaniyat, media savodxonlik, media ta’lim.

Аннотация. В статье освещаются вопросы развития интеллектуального и духовно-нравственного потенциала молодёжи в условиях современных информационно-коммуникационных технологий, защиты от информационных угроз и формирования медиакультуры. Также раскрывается роль семьи и образовательных учреждений в воспитании молодёжи, значение национальных ценностей и духовно-нравственного воспитания, а также представлены рекомендации по развитию медиаобразования.

Ключевые слова: воспитание молодёжи, интеллектуальный потенциал, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, информационно-коммуникационные технологии, интернет, информационные угрозы, медиакультура, медиаграмотность, медиаобразование.

Abstract. The article examines the development of young people's intellectual and spiritual-moral potential in the context of modern information and communication technologies, protection from information threats, and the formation of media culture. It also highlights the role of families and educational institutions in youth upbringing, the importance of national values and spiritual-moral education, and pro-

vides recommendations for developing media education.

Keywords: youth upbringing, intellectual potential, spiritual and moral education, national values, information and communication technologies, internet, information threats, media culture, media literacy, media education.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida keng ko‘lamli va ulug‘vor islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohadagi islohotlar vatanimiz istiqboli, tinchligi va obodligiga yo‘naltirilgan. Ana shunday ulkan orzu va maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarishda intellektual yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa sanaladi.Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste’dodi va qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois Prezidentning 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son farmoniga muvofiq yoshlar tomonidan ko‘tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili Yoshlar kuni arafasida hukumatning dasturi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy dasturlari qabul qilinadi.

Ta’lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan biri jamiyatdagi yoshlarni Ona-Vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashdir. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishni taqozo qiladi. Bunday dolzarb vazifaning kun tartibiga qo‘yilishi bejiz emas. Yoshlar dunyoqarashida tafakkur, jahon taraqqiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, ta’sir o‘tkazuvchi sifatida saqlanib qolmoqda.

Shunisi ayonki, tarixiy bilimlar yoshlarni ko‘p narsaga ongli ravishda qarashga undaydi. Ularning har biri qalbida Vatanga mehr tuyg‘ularini, bugungi kun qadriga yetish hissini shakllantiradi. Yuqori svilizatsiyalashgan bugungi makonda yoshlar bilan yakka tartibda ishni yo‘lga qo‘yish, ularda axloqiylik fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki odob va axloq azaldan inson uchun eng zarur ziynatlardan hisoblangan.

Odamzodni yuksaklarga ko‘taradigan ham, uning qadr-qimmatini oshiradigan ham ana shu axloqiy barkamollikdir. Shu o‘rinda qadimgi Rim faylasufi Epikratning "barcha kashfiyotlar ichida go‘zali yaxshi tarbiya olgan insondir”, degan o‘gitini hamisha yodda tutish o‘rinlidir. Yoshlarda ana shunday fazilatlarni tarbiyalashda oila va tashqi muhit, xususan, maktab va o‘quv yurtlarining ahamiyati katta.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasi-

da “Yoshlarga oid davlat siyosati - davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora tadbirlar tizimini yaratish” kabi maqsad va vazifalar belgilangan.

Mamlakatimiz insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, vatanini sevish kabi ijobiy xislatlarni jo qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Shu bois hamjamiyat taraqqiyotiga tegishli bo‘lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida yoshlarga davlat siyosati darajasida e’tibor berilib, kundan-kunga fan, ta’lim va ishlab chiqarish jarayonida yoshlarning intellektual salohiyati va tafakkur tarzi ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz, nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”

Biroq zamonaviy transformatsion jarayonlar hozirgi dunyoda tobora jadallashib, uning yoshlar hayotiga ta’siri natijasida madaniyatning universiallashuvi tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda mazkur jarayonlarning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohada ko‘rish va kuzatish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiya vositasida ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlarining tezkorlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarining ortishi, tabiiyki, yoshlar masalasiga jiddiy e’tibor berish va ularni turli ma’naviy tahdidlardan himoya qilish va dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish zaruratini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bu borada Sharq mutafakkirlarining purma’no hikmatlariga e’tibor beradigan bo’lsak, ular muammoni hal qilishda ilmga alohida e’tibor qaratgan. O‘z davrining yetuk mutafakkirlaridan hisoblangan Nizomiy Ganjaviy yoshlarni ilm-ma’rifatli qilib tarbiyalash juda muhim ekanligini ko‘p bor

ta’kidlagan. U, jumladan, shunday deydi: “Kunim kundan-kunga bo‘lsin desang xush, ilm payidan bo‘l borida es-hush!”

Bugungi yoshlar yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo‘lishga intilmoqda. Uning asosi esa intellekt hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalarining yuqori sur’atdagi taraqqiyoti insoniyat tafakkurida yanada sermazmun ahamiyat kasb etmoqda. Axborot ta’siri deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. So‘nggi rusumdagi telefon, planshet, noutbuk va kompyuterlar internet orqali bizga kerakli ma’lumot va yangiliklarni bir zumda aniqlashda beminnat xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda internet tarmog‘idagi saytlardan o‘zimizga kerakli bo‘lgan axborotlarni bir necha daqiqalarda olishimiz mumkin. Bu bizga juda qulay, oson va vaqtdan yutish imkonini beradi. Ammo masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Internetdan keraksiz va buzg‘unchi g‘oyalar maqsadida, axborot xuruji sifatida hamda yoshlarning miyasini zaharlovchi vosita sifatida foydalanuvchilar ham yo‘q emas. To‘g‘ri, mustaqil tafakkurga, intellektual ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yoshlar har qanday xurujlardan o‘zini himoya qila oladi. Bu borada yoshlar ma’naviyati va milliy madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan alohida qayd etilganidek: “Biz haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir.

Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim”

Har qanday jarayonning salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lganidek, internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ham salbiy jihatlari mavjud. Tan olib aytishimiz kerakki, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanmagan vaqtlarda yoshlar ilm olishga, kitob o‘qishga, sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishga oshiqishgan. Bugungi yoshlarning qiziqishi esa aksincha. Endi ularning ko‘pchiligi internet kafelari, kompyuter o‘yinlari markazlariga intilmoqda. Ammo ular bu yoshida bilim egallash, kasb-hunar o'rganish, o‘zini kelajagini yaratish uchun harakat qilishlari lozim.

Internetda tarqaladigan turli yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan xabarlar, be’mani rasmlar, videolar va kompyuter o‘yinlari natijasida yoshlarning saviyasi pasayib, hayotga, atrof-muhit va insonlarga bo‘lgan munosabati tubdan yomonlashib bormoqda. Be-

shafqat kompyuter o‘yinlari yoshlar ongini zaharlamoqda. Bu o‘yinlarda kimnidir o‘ldirishadi, atrofni vayron qilishadi va vayronkor g‘oyalarni amalga oshirishadi. Bunday jangari o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘layotgan yoshlar kelajakda qanday inson bo‘lib voyaga yetadi, degan savolga javob topishimiz lozim bo‘ladi?

Bu kabi kompyuter o'yinlari yoshlarni bemehr, qo‘pol qilib qo‘yadi, yaxshilikdan uzoqlashtiradi. Bundan tashqari asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va buning oqibatida ular asabiy va jahldor bo‘lib, jamiyatga va o‘z yaqinlariga turli darajada jabr-zulm, zarar yetkazayotgani sir emas. Ushbu ko‘ngilsiz voqealarni oldini olishda, yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrashni, ularni axborot texnalogiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatishni har birimiz o‘zimiz uchun mas’uliyatli vazifa sifatida qabul qilishimiz va birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur. Zero, hozirgi kunda Yurtboshimiz tashabbusi bilan yoshlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, navqiron avlodda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Shoir Ahmad Shavqiy aytganidek: “Millatlar axloqi bilan millat bo‘ladi, axloqi ketsa, millat ham ketadi”. Millatimiz uzoq yillik tarixga ega. Ushbu davrlar mobaynida qanchadan-qancha mutafakkirlar, olimlar, ulamolar, din peshvolari yetishib chiqdi. Ular dunyo olimlari va mutafakkirlari tomonidan tan olinib, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shganlar. Bugungi kunga kelib esa bizni qiynayotgan muammolardan biri, aynan yoshlarning intellektual salohiyati va tafak-kurining sustligi, bu esa ularning internetdan foydalanishida ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu borada biz tomoshabin bo‘lib turmasdan ularda ilmga, ma’rifatga qiziqishini uyg‘otishimiz va internetdan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Bizga bu borada qo‘l keladigan omil sifatida xorij media ta’limini namuna sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

Xitoy milliy internet domenida har qanday andishasiz fotosuratlarni aniqlagan insonga ma’lum miqdorda mukofot berish va’da qilingan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida maktablarni shu mazmundagi saytlardan muhofaza qilish maqsadida kontent filtrlar bilan ta’minlash uchun mablag‘ ajratilgan. Avstraliya ta’lim vazirligi barcha maktab va universitetlarda andishasiz saytlarga kirishni taqiqlash uchun 1,3 mln. dollar sarf qiladi. Isroilda esa maxsus ultratovushli asbob ishlab chiqildi. Uning yordamida foydalanuvchining yoshini aniqlash mumkin. Agar u yosh bo‘lsa, avtomatik ravishda o‘qutung axloqi funun, zamonaga darkorlik ilmlar zarur”. Ibrat ushbu fikrlari bilan zamona yoshlarini o‘z davri dunyoviy bilimlaridan ham to‘liq xabardor bo‘lishga undaydi. Ja-

didlar kishilarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratib, ularni har xil chet madaniyatlardan, axloqlardan saqlanishga chaqirganlar. Abdulhamid Cho'lponning bu sohadagi fikrlari g'oyat ibratlidir.

"...Ey qarindoshlar! Katta iltimosimiz shuldurki, Ovrupaning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan balki, ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Ovrupaning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz Ovro'poning maktab, madrasa, ilm-fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur, olim qilub, johillikdan asorat qulligidan qutuldurodur. Birodarlar, ko'zlaringizni ochub yaxshi o'ylanglar!!!" Demak tarbiya masalasi har qaysi davrda dolzarb bo'lgan va u bugun ham azaldagidek o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor vazifalarining ko'lami tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, intellektual yoshlar tarbiyasi, tashabbuskorlik qobiliyati, ilmiy salohiyati, ularda ijodkorlik va ijtimoiy faollikni oshirish tamoyillari muhim sanaladi.

Yoshlarni tinchlik, toqatlilik, insonparvar, millatlararo muloqot ruhida tarbiyalash hamda ularni jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirish hayosiz saytlarga kirolmaydi. Birlashgan Arab Amirliklarida global tarmoqqa kirish mamlakatdagi yagona internet-provayder - Etisalat orqali amalga oshiriladi. Saudiya Arabistonida esa, "Internet national" nomli kompleks metod ishlab chiqilgan bo'lib, uning vositasida foydalanuvchilar manzili va jo'natilayotgan xabarlar filtrlanadi. Bulardan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'z bolalik davrini o'tab, yangi hayotga qadam qo'yayotgan kelajak avlodlarni biz kattalar himoya qilishimiz va ularni ijobiy tomonga yo'naltirishimiz kerak.

Bundan 3,5 ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan biri qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatini inkor etadi" degan so'zlar bitilgani ham yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha bosqichida asosiy masalalardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi. Yana bir misol: antik davr buyuk faylasufi Suqrot o'z davrida: "Eh, bu yoshlar qayoqqa qarab ketmoqda" - deb xitob qilgan edi. O'z davrida jadid namoyondalaridan biri Is'hoqxon Junaydullaxonxo'ja o'g'li Ibrat o'zining maqolalarida to'ylardagi isrofgarchiliklar, ortiqcha sarf-surflar, yoshlarning ilm olishdan ko'ra ko'pkari, ya'ni uloq chopishga bo'lgan ishqibozliklari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. U xalqni har xil illatlardan saqlovchi kuch-ilm olish ekanligini ko'rsatadi. U shunday deb yozadi: "Ilmsiz kishi, asos-

siz devor degani. Asossiz devor g‘oyatda bee’tibor bo‘lur. Ilm o‘qung borasida qilinishi kerak bo‘lgan ishlar o‘z dolzarbligini hech qachon yo‘qotmaydi. Yoshlarning porloq kelajagini o‘ylab samarali faoliyat olib borish, intellektual yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa bo‘lib qolishini alohida ta’kidlagan holda malakali yosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni to‘la amalga oshirish borasida quyidagi tavsiya va mulohazalarni keltirish mumkin:

- Yoshlar o‘rtasida media madaniyatni shakllantirishda ularning e’tiboriga asosli, muhim, zarur, foydali axborotlarni o‘rganishlarini tavsiya etish;
- Ota-onalarning media savodxonligini oshirib, oila, ta’lim muassasalari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish;
- Tarbiyaviy ishlar bahs-munozaralar, debatlar, muammoli va ziddiyatlarni tahlil qilish pedagogik-psixologik profilaktika ishlarini olib borish;
- Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichida voyaga yetmaganlarning media muhitga samarali harakatlanish, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishlarini ta’minlovchi o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;
- Media ta’limni samarali tashkil etish yuzasidan to‘plangan xorijiy va mahalliy tajribalarni ommalashtirish;
- Ta’lim muassasalarida media-ta’limni tashkil etilishini yo‘lga qo‘yish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4.Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

5.Ibrat, I. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat va madaniyat masalalariga oid nutq va ma’ruzalari.